

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 4

**tsuull.uz
goldenscripts.tsuull.uz**

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 4

www.tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

**BOSH MUHARRIR
O'RINBOSARI**

Karomat Mullaxo'jayeva

MAS'UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY'ATI

Karl Rayxl (Germaniya)
Isa Habibeyli (Ozarbayjon)
Seyhan Tanju (Turkiya)
Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Benedek Peri (Vengriya)
Vahit Turk (Turkiya)
Teymur Kerimli (Ozarbayjon)
Eunkyung Oh (Koreya)
Nazef Shahrani (AQSh)
Boqijon To'xliyev
Muhammadjon Imomnazarov
Bilol Yujel (Turkiya)
Qosimjon Sodiqov
Zulxumor Xolmanova
Mustafa O'ner (Turkiya)
Nurboy Jabborov
G'aybulla Boboyorov
Kimura Satoru (Yaponiya)
Imran Ay (Turkiya)
Aftondil Erkinov
Nadir Mamadli (Ozarbayjon)
Rashid Zohidov
Otabek Jo'raboyev
Bulent Bayram (Turkiya)
Qo'ldosh Pardayev
Nodirbek Jo'raqo'ziyev
Oysara Madaliyeva
Hilola Nazirova

MUNDARIJA

MATNSHUNOSLIK

Zilola Shukurova, Muattar Ahmedova “Qisasi Rabg’uziy” asari nusxalari va ularning matniy-qiyosiy tadqiqi	4
Saydakbarxon Valiyev “Nahju-l-farodis” asarida keltirilgan qirq hadis va ularning qiyosiy-tekstologik tahlili	20
Munavvar Olimova Huvaydoning Navoiy g’azaliga muxammasi xususida	46

ADABIYOTSHUNOSLIK

Abdulhamid Qurbonov “Yusuf va Zulayxo”: farzandlik tuyg’ularining tasviri	60
Rübabə Şirinova “Ədəb əl-bəhs” əsəri	79
Sardor Umarov Futuvvat va badiiy ijod: tahlil va talqin	91

LINGVISTIKA

Anvarbek Turdialyev Denov tojiklari nutqida qipchoq va qarluq shevalariga xos xususiyatlar	109
Farhad Rahimi Feraği Sözlüğünün Yanlısları Üzerine II	123

EDITOR IN CHIEF	
Shuhrat Sirojiddinov	
 DEPUTY EDITOR IN CHIEF	
Karomat Mullakhojaeva	
 EXECUTIVE SECRETARY	
Ozoda Tojibaeva	
 EDITORIAL BOARD	
Karl Rechl (Germany)	
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	
Seyhan Tanju (Turkey)	
Almaz Ulvi (Azerbaijan)	
Benedek Peri (Hungary)	
Vahit Turk (Turkey)	
Teymur Kerimli (Azerbaijan)	
Eunkyung Oh (Korea)	
Nazif Shahrani (USA)	
Bakijan Tukhliev	
Mukhammadjan Imomnazarov	
Bilol Yujel (Turkey)	
Kasimjan Sadikov	
Zulkhumor Kholmanova	
Mustafa O'ner (Turkey)	
Nurboy Jabborov	
Gaybullah Babayarov	
Kimura Satoru (Japan)	
Imran Ay (Turkey)	
Aftandil Erkinov	
Nadir Mamadli (Azerbaijan)	
Rashid Zahidov	
Atabek Juraboev	
Bulent Bayram (Turkey)	
Kuldosh Pardaev	
Nodirbek Jurakuziev	
Oysara Madalieva	
Hilola Nazirova	

CONTENTS	
TEXTOTOLOGY	
Zilola Shukurova, Muattar Ahmedova	
Manuscript Copies of “Qisas al-Rabghuzi” and Their Textual–Comparative Study	4
 Saydakbarxon Valiyev	
Forty hadiths and their comparative-textological analysis presented in the work “Nahju-l-farodis”	20
 Munavvar Olimova	
On Huvaydo’s Mukhammas Based on a Ghazal by Navo’i	46
 LITERATURE	
Abdulhamid Qurbonov	
“Yusuf and Zulaikha”: description of filial feelings	60
 Rubaba Shirinova	
“Adab al-bahs” work	79
 Sardor Umarov	
Futuwwa and Literary Creativity: Analysis and Interpretation	91
 LINGUISTICS	
Anvarbek Turdialiev	
Kipchak and Karluk Dialectal Features in the Speech of the Denov Tajiks	109
 Farhad Rahimi	
On the Mistakes of Feraği Dictionary	123

Huvaydoning Navoiy gʻazaliga muxammasi xususida

Munavvar Olimova¹

Abstrakt

Xojanazar Huvaydo XVIII asr oʻzbek adabiyotida oʻzining lirik sheʼrlari va dostonlari bilan mashhur shoirlardan biridir. Ijodkordan salmoqligina adabiy-maʼnaviy meros qolgan. Uning lirik merosi – devoni nashr qilingan. Bugungi kunda koʻpgina qoʻlyozmalar fondida shoirning asarlari qoʻlyozma va toshbosma holida saqlanmoqda. Shulardan biri Buxoro adabiyot va sanʼat muzeyida saqlanayotgan “Huvaydoyi Chimyoniy” nomli toshbosmadir. Mazkur manbani oʻrganish asosida shoirning nashr etilgan devoni orasida mavjud boʻlmagan, Navoiy gʻazaliga taxmis bogʻlangan bir muxammasi aniqlandi. Maqolada ushbu muxammas matni eski oʻzbek yozuvidan joriy yozuvga tabdil qilinib, gʻoyaviy-badiiy jihatdan tahlilga tortilgan.

Kalit soʻzlar: *qoʻlyozma, toshbosma, devon, janr, muxammas, tasavvuf, badiiy tahlil.*

Kirish

Maʼlumki, mumtoz adabiyot namunalari, asosan, qoʻlyozma va toshbosma shaklda yetib kelgan boʻlib, bunda kotiblar hamda xattotlarning xizmatlari beqiyos. Bugungi kunda islom tamadduni rivojiga salmoqli hissa qoʻshgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ubaydullo Ahror, Boborahim Mashrab, Soʻfi Olloyor, Xojanazar Huvaydo singari mashhur mutasavviflarning merosi keng oʻrganilmoqda. Ular qoldirgan maʼnaviy xazinani xalqimiz oʻrtasida keng targʻib etish maqsadida turli qoʻlyozma va toshbosma manbalarni topish, joriy yozuvga tabdil qilish, nashr etish va tadqiq qilish ishlari anchayin jonlandi. Koʻplab qoʻlyozma manbalar hozirgi oʻzbek imlosiga tabdil qilinib chop etildi. Tadqiqot davomida aniqlangan Xojanazar Huvaydoning Buxoro adabiyot va sanʼat muzeyida 163-inventar raqami bilan saqlanayotgan “Huvaydoyi Chimyoniy” nomli toshbosmasini joriy yozuvga oʻgirishga muvaffaq

¹ Olimova Munavvar Sultonovna – tadqiqotchi, Buxoro davlat universiteti.

E-pochta: olimovamunavvar1981@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-0344-9139

Iqtibos uchun: Olimova, M. S. 2024. “Huvaydoning Navoiy gʻazaliga muxammasi xususida”. *Oltin bitiglar* 4: 46 – 77.

bo'ldik.

Ma'lumki, shoirning devoni professor Qodirqul Ro'zmatzoda tomonidan joriy yozuvga o'girilib, nashrga tayyorlangan. Ushbu bosma devon bilan "Huvaydoyi Chimyoniy" toshbosmasi o'zaro qiyoslanganda ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan, Navoiy g'azaliga taxmis bog'langan bir muxammasi topildi va u ilk marta e'tiboringizga havola qilinmoqda.

Huvaydo ijodida muxammas janri

Huvaydo o'z she'rlariga, asosan, Qur'on oyatlari, hadislar va tasavvufiy g'oyalarni singdirgan. Shoir hayoti va ijodini o'rgangan olim Qodirqul Ro'zmatzoda ham: "Xojamnazar Huvaydo aksariyat g'azal va muxammaslarini, ruboiylarini tariqat va ma'rifat yo'lidagi muridlari uchun dastur sifatida yozib qoldirgan" [Ro'zmatzoda 2020, 34] deydi. Demak, diniy maktab va madrasalarda Qur'oni karim, hadisi sharif bilan birgalikda diniy-tasavvufiy mavzudagi g'azallar ham o'qitilgan. Shuning uchun uning qo'lyozmalari keng nusxada turli hududlarda tarqalgan. Bunga asos sifatida Buxoro xalq amaliy san'at muzeyi qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan Huvaydo kitoblarini aytishimiz mumkin. Chunki Buxoro qo'lyozmalar fondida shoir asarlarining 6 ta qo'lyozmasi va 1 ta toshbosmasi saqlanadi.

Ma'lumki, Xojanazar Huvaydoning bizgacha "Kitobi eshon Huvaydoyi Chimyoniy" devoni, "Rohati dil" manzumasi va "Hikoyati sulton Ibrohim Adham" asarlari to'liq holda yetib kelgan. Shoirning 2005-yil nashr etilgan devoni hamda 2017-yildagi ikkinchi to'ldirilgan varianti shoir ijodini nisbatan to'liqroq qamrab olgan deyish mumkin. Chunki devonda 370 ta g'azal, 5 ta mustahzod, 3 ta muxammas, 41 ta murabba' va 28 ta ruboiyi o'rin olgan. Ammo musaddas, musammanlari bu nashrlarda uchramaydi. Shoirning yana 1961-yil Toshkentda chop etilgan (Vohid Zohidov va Suyima G'aniyeva nashrga tayyorlagan) "Huvaydo. Tanlangan she'rlar" kitobida esa bir nechta g'azallari bilan birga 1 ta musaddas va 1 ta musammani ham keltirilgan. Shu bosma nashrlar shoirning 1900-yil Toshkentdagi Ilin litotipografiyasida bosilgan "Huvaydoyi Chimyoniy" nomli Buxoro toshbosmasi bilan qiyosiy tahlil qilinganda, shoirning nashr bo'lmagan yangi she'rlari borligi kuzatildi. Masalan, bir munojot-g'azal, bir tasdis musaddasi hamda olti bandli taxmis-muxammasini aytish mumkin. Shoirning munojot-g'azal, bir tasdis musaddasi ushbu jurnal orqali ilm ahliga ma'lum qilingan edi. Shular qatori olti bandli taxmis-muxammas ham tabdil va tahlil qilindi. Mazkur muxammas Alisher Navoiyning "Zihi har

lahni bulbul savtining zotingg'a isboti", deb boshlanuvchi g'azaliga nazira shaklida yozilgan.

Qayd etish joizki, mumtoz adabiyotimizda g'azal asosida yaratilgan musammatlar salmoqli o'rin egallaydi. Bunday xarakterdagi she'rlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular boshqa shoirlar tomonidan yaratilgan g'azal, ba'zan shoirning o'z g'azali asosida bitiladi. G'azal asosida yozilgan musammatlardan muxammas shakli salmoqli o'rinni egallaydi [Носиров 1979, 119].

Muxammaslar yaratilish xususiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1. Mustaqil yaratilgan muxammaslar. Ular Sharq adabiyotshunosligida forsiy "tab'i xud muxammaslar" istilohi bilan ham yuritiladi. 2. Taxmis muxammas, ya'ni o'zga shoir tomonidan yaratilgan g'azallarning vazni va qofiyasiga mos yaratilgan muxammaslar.

Mumtoz adabiyotimizda taxmis muxammaslarning salmog'i ko'p. Bunda muallif o'zga shoir yoki ba'zida (juda kam hollarda) o'z g'azalini asos – zamin qilib olib, shu mavzuni davom ettiradi, vazn, qofiya va radifni saqlagan holda beshlik yaratadi. Bunda asos qilib olingan g'azaldagi har baytning yuqori qismiga uch misra qo'shiladi. Maqta' badda taxmis bog'layotgan shoirning taxallusi ham keltiriladi. Mumtoz janrlarda barakali ijod qilgan Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotiga ham ko'plab muxammaslar kiritilgan.

Xojanazar Huvaydo ijodida ham tasavvufiy ohanglar, diniy qarashlar, go'zal iqtiboslarga boy g'azallar bilan bir qatorda mustazod, muxammas, musaddas, murabba' va ruboiy kabi she'riy janrlar mavjud. Shoir har bir janrda ijod qilar ekan, unda ilohiy ishq, oliyjanob insoniy fazilatlarini, halollik, poklik, rostgo'ylik, diyonatlilik, insonparvarlik, saxiylik, kamtarinlikni ulug'laydi, ma'naviy kamolotga erishishda diniy qadriyatlarining katta ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlaydi. Shu bilan birga, shoir inson xulq-atvoridagi diyonatsizlik, iymonsizlik, kazzoblik, xasislik, molparastlik, mutakabbirlik, o'zgalar haqqiga xiyonat qilish, nopoklik singari illatlarni keskin qoralaydi.

She'riyatda Navoiyni o'ziga ustoz deb bilgan Xojanazar Huvaydo uning an'alarini izchil davom ettiradi. Qolaversa, uning g'azallariga muxammaslar ham bog'laydi. Misol sifatida Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonida 575-raqam ostida keltirilgan "Zihi har lahni bulbul savtining zotingg'a isboti" deb boshlanuvchi g'azaliga yaratgan taxmis muxammasini aytish mumkin.

Buxoro toshbosmasida kotib muxammasning oxirgi beshinchi misrasini sahifa o'rtasida xuddi sarlavhadek yozgan. Bu esa to'rtlik yoki qit'aning sarlavhasi degan xulosani ham beradi. Ammo

she'r so'ngida kelgan Navoiy taxallusi bu masalaga oydinlik kiritadi. Ya'ni Huvaydoning Navoiy g'azaliga yozgan muxammasi ekanligi ma'lum bo'ldi. Muxammas bandlarining soni taxmis bog'langan g'azal baytlari soni bilan bir xil, ya'ni 7 bayt. Biroq bandlar ketma-ketligi g'azal baytlari tartibi bilan mos emas, baytlar o'rni almashgan. Navoiy g'azalining matni quyidagicha:

*Zihi har lahni bulbul savtining zotingg'a isboti,
Jahon bog'ida har gul yafrog'i husnungg'a mir'oti.
Vujudi zarraning mumkin emas to sobit o'lmas mehr,
Ne hojat zarra xaylidan quyosh zotig'a isboti?
Bo'lub zotingda ojiz har sifat ichinda mavsufi,
Oningdekkim qila olmay sifoting sharhini zoti.
Xirad zotingni tashbih etgali har fikrkim aylab,
Takallum anda yo'l topmay magar hayhot-hayhoti.
Ne qahring zahridin emin bo'lub har sokini masjid,
Ne lutfung bodasidin noumid ahli xaroboti.
Ne zarra bo'lsa maqbulung quyoshdin zarra qilg'ondek,
Quyosh ul zarradin aylab sharaf birla mubohoti.
Navoiy zikri otingdur, umidi ulki, qutqorsang,
Ani ot istamakdin, balki andinkim bo'lur oti*

[Navoiy 1987, 523].

Taxmis muxammasning joriy yozuvdagi tabdili:

Kalom mujda har bulbulg'a dur husningni oyoti,
Maqom gulshan ko'yung kalomingdur maqomoti.
Na to'tikim takallum ayladi zotingdin isboti,
**Zihi har lahn bulbul surati zotingdin isboti,
Jahon bog'ida har gul yafrog'i husnungni mir'oti.**

Ne junbush qatra afvojig'a amvoj urmayin to nahr,
Ne bulbulg'a navoni gulg'a rang la'lingdin o'lmay bahr.
Quyosh zarrotini har dam tafakkur aylasang, ey dahr,
**Vujud zarraning mumkin emas to sobit ermas mehr,
Na hojat zarra xaylidan quyosh zotig'a isboti.**

Taammul to'tisi jon bulbuli zotingg'a fikr aylar,
Aytur kaj aql idrokin fano vodiya shukr aylar.
Sifoting vasfi baskim to'ti dil garchi zikr aylar,
**Xirad zotingg'a tashbeh aylamakka har na fikr aylar,
Takallum anda yo'l tobmas magar hayhot-hayhoti.**

Nasim lutf ila g'unchadin gullar ochilg'ondek,
Inoyat abridin gulbarg uza shabnam sochilg'ondek.
Quyosh parda na zotig'a ham sham'i yoqilg'ondek,
Erur har zarra maqbulung quyoshdin zarra qilg'ondek,
Quyosh ul zarradin aylab sharaf birla mubohoti.

Na had orifg'a zoting urfi ta'rifig'a ma'rufi,
Sifotin bilki, guna zotig'a ma'ruf mazrufi.
Valo ahso sano dedi, ul kunin mashrufi,
Bo'lub zotingg'a ojiz har sifat ichida mavsufi,
Aningdek kim deyolman ham sifating sharhini zoti.

Jahong'a rahmating om o'ldi, bas qahring ham ermas zid,
Itobing jomi chekmay kimsa mehring no'sh qilg'oni had.
Hama shoh-u gado sultoni sen shahanshoi tafrid,
Ne qahring zahrinni emin bo'lub bir sokin masjid,
Na lutfung bodasidin noumid ahl xaroboti.

Fanoyi yo'ldin ozur yo ilohiy, oni boshqorsang,
Sirot al mustaqim ichra hidoyat sori boshqarsang.
Ko'ngulda g'ayr naqshi kim shahodat tig' ila yorsang,
Navoyi zikr otingdur umidi ulki qutqarsang,
Aning ot istamakdin balki andin kam bo'lur oti.

Ta'kidlash lozimki, Huvaydo "Devon"ida 3 muxammasi bor. Bulardan biri So'fi Olloyor g'azaliga taxmis bo'lsa, qolgan ikkitasi shoirning o'z g'azaliga yozgan muxammasidir. Ushbu uch muxammasda ham Huvaydo o'z taxallusini so'nggi badda keltirgan. Ammo yuqoridagi Navoiy g'azaliga nazira shaklida yozgan muxammasida shoir o'z taxallusini keltirmagan. Shunday bo'lsa-da, muxammas matnining tahlili orqali Huvaydo ifoda uslubini sezish qiyin emas.

Alisher Navoiyning "Zihi har lahni bulbul savtining zotingg'a isboti" deb boshlanuvchi g'azali "Badoye ul-bidoya" devoniga 680-raqam ostida kiritilgan bo'lib, hamd g'azal hisoblanadi. Ma'lumki, mumtoz adabiyotda hamd g'azallar shoirning diniy-so'fiyona qarashlarini o'zida mukammal aks ettirgan – islom va tasavvuf falsafasi g'oyalarini teran umumlashtirgan san'at asaridir. Ushbu turkum g'azallar o'zining g'oyaviy-badiiy xususiyatiga ega. Ular o'z timsol va tashbehlari bilan ajralib turadi. Jumladan, bu turkum she'rlarda *quyosh, zarra, bahr, mavj, gul, bulbul, parvona, sham* kabi ko'plab timsollarning ramziy xarakter kasb etishini ko'rish mumkin. Navoiy ushbu 7 baytli hamd g'azalida ham Allohni

madh etadi, ulug'laydi, undan najot so'raydi, o'zining zaifligi, ojiz-u notavonligini izhor qiladi. Qur'oni karimning "Fotiha" surasidagi "Hamd-u sano butun olamlar xojasi, mehribon va rahmli, qiyomat kunining egasi bo'lmish Alloh uchundir", degan oyatlar hamd g'azalda aytilgan fikrlarning nechog'li o'rinli va haqli ekanligini isbotlaydi. Taxmis muallifi Huvaydo ham g'azalda keltirilgan fikrlarni mantiqan rivojlantirib, uni o'z ijodiy g'oyalari bilan boyitadi. Natijada, vujudga kelgan she'r unga asos bo'lgan g'azal bilan uyg'unlashib, bir muallif tomonidan yaratilgandek tasavvur uyg'otgan.

Kalom mujda har bulbulg'a dur husningni oyoti,
Maqom gulshan ko'yung kalomingdur maqomoti,
Na to'tikim takallum ayladi zotingdin isboti,

Zihi har lahn bulbul surati zotingdin isboti,

Jahon bog'ida har gul yafrog'i husnuningni mir'oti.

Muxammasning birinchi bandi g'azal matla'siga moslangan bo'lib, Allohning husni oyatlar orqali har bulbulga xushxabar ekanligi, kalomi bilan gulshanda joy tutgani, to'tining "takallum aylashi" Alloh zotining bir isboti deya izohlangan. Shu bilan birga, Alloh taoloning zamon va makondan tashqari, balki zamon va makonni qamrab oluvchi, uni yaratuvchi azaliy va abadiy Zot ekanligi, bu Zotning husn-u jamoli, qudrati va yaratuvchiligi ta'kidlanadi. Keyingi misralarda esa "Ey ajabki, bulbul xonishining har bir ohangi Sening zotingga bir dalil – isbot, jahon bog'idagi har gul yaprog'i – Sening husningning ko'zgusi" [Жумахўжа 2018, 152] degan mazmun ifodalangan. Mazkur banddan Allohning sifatlati U yaratgan jamiki mavjudotlarda aks etganligi ta'riflanadi, ya'ni tajalli bilan bog'liq badiiy mulohazalar keltirilib, keyingi bandlarda ushbu fikr mohiyati kengroq ochib beriladi.

Ne junbush qatra afvojig'a amvoj urmayin to nahr,
Ne bulbulg'a navoni gulg'a rang la'lingdin o'lmay bahr,
Quyosh zarrotini har dam tafakkur aylasang, ey dahr,
Vujud zarraning mumkin emas to sobit ermas mehr,
Na hojat zarra xaylidin quyosh zotig'a isboti.

Shoir ikkinchi bandda ham Allohning sifatlati borliqdagi qator ashyolar bilan, ya'ni daryoning qatra qo'shilib junbushga kelishi, mavj urishi, bulbulning navosi, gulning dengiz tubidagi la'l kabi qizil rangi bilan ta'riflaydi. Har bir misrada qo'llanilgan tanosib fikr ifodasining izchilligiga xizmat qilgan. Ayni o'rinda, shoir nido orqali o'z badiiy mulohazalarining ta'sir quvvatini oshiradi. Ya'ni dunyoga murojaat qiladi va "Quyosh zarrasini ko'rib tafakkur aylasang, Allohning naqadar buyukligini ko'rasan" demoqchi bo'ladi. So'nggi misralarda

“Quyosh porlab ko‘rinmaguncha zarraning borlig‘i – vujudi ayon bo‘lmaydi (mavjud bo‘lmaydi), shunday ekan, zarra to‘dasi orqali Quyoshni isbotlashga hojat bormi?” degan mazmundagi Navoiy baytini keltiradi. Dunyoning yaratilishini diniy nuqtayi nazardan idrok etgan shoir Allohning qudrati oldida lol qolsa, so‘fiyona qarashlarga asoslanib fikr yuritayotgan chog‘da har bir narsada – qatra-yu daryoda, dengiz-u uning tubidagi la‘lda Haqning jilvasini ko‘rib hayratlanadi.

Taammul to‘tisi jon bulbuli zotingg‘a fikr aylar,
Aytur kaj aql idrokin fano vodiya shukr aylar,
Sifoting vasfi baskim to‘ti dil garchi zikr aylar,
Xirad zotingg‘a tashbeh aylamakka har na fikr aylar,
Takallum anda yo‘l tobmas magar hayhot-hayhoti.

Huvaydo Navoiyning “Aql Zotingni turli narsalarga o‘xshatib, fikr-mulohaza yuritadi, biroq buni so‘zlab berolmay, «hayhot, hayhot» deyish bilan cheklanadi” mazmunidagi baytini keltirib, jon bulbuli Sening zotingni bilish uchun fikr qiladi, aql-idroki yetmay o‘tkinchi dunyoga shukr qiladi va vasfingni aytib zikr qiladi, deya ta‘kidlaydi. Shu o‘rinda Navoiy baytidagi ayrim so‘zlar qofiyaga moslashtirilganining guvohi bo‘lamiz. “Xirad zotingni” jumlasini “zotingg‘a” shaklida, “tashbih etgali har fikrkim aylab” jumlasini “tashbeh **aylamakka** har **na** fikr aylar” shaklida o‘zgartirilgan. Biroq bu tafovutlar bayt mazmuniga ta‘sir etmagan.

Nasim lutf ila g‘unchadin gullar ochilg‘ondek,
Inoyat abridin gulbarg uza shabnam sochilg‘ondek,
Quyosh parda na zotig‘a ham sham‘i yoqilg‘ondek,
Erur har zarra maqbulung quyoshdin zarra qilg‘ondek,
Quyosh ul zarradin aylab sharaf birla mubohoti.

Mazkur 4-bandda Navoiy g‘azalidagi 6-baytga oid misralar keltirilgan, ammo Navoiy baytida **“Erur har”** so‘zlari mavjud emas. Balki “Ne zarra bo‘lsa maqbulung quyoshdin zarra qilg‘ondek” tarzida kelgan misradagi “Ne” va “bo‘lsa” so‘zlari o‘rniga **“Erur har”** birikmasi kiritilgan. Bu, balki, kitobni ko‘chirgan kotibning faoliyati bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ammo mazkur o‘zgarish ma‘noga va vaznga ta‘sir etmaganligini ko‘rish mumkin.

Shamol lutfi bilan g‘unchadan gullar ochilishi, inoyat yomg‘iridan gulbarg ustida shabnam sochilishi kabi tashbehlar orqali shoir “Qaysi bir zarra Sening qabulingga musharraf bo‘lsa (Senga maqbul bo‘lsa), quyosh zarrasiday sharaf topadi va quyosh

bu zarradan g'ururlanib sharaflari bo'ladi" degan mazmundagi baytni kiritib, muxammasning mazkur bandini shakllantiradi. Ushbu bandda keltirilgan badiiy mulohazalar Huvaydoning betakror iste'dod sohibi ekanligini yana bir bor dalillaydi. Nasimning lutfi ila g'unchadan gul ochilishi (tashxis) va Alloh inoyatining yomg'ir va shabnamga o'xshatilishi (tashbeh) shoir mahoratini namoyon etadi.

Na had orifg'a zoting urfi ta'rifg'a ma'rufi,

Sifotin bilki, guna zotig'a ma'ruf mazrufi,

Valo ahso sano dedi, ul kunin mashrufi,

Bo'lub zotingg'a ojiz har sifat ichida mavsufi,

Aningdekkim deyolman ham sifating sharhini zoti.

Ushbu beshinchi bandda Huvaydo Alloh sifatini keltirishda o'ziga xos usuldan foydalangan. Ma'lumki, orif – bu arabcha "biluvchi, xabardor", ya'ni ilm bilan axloqiy yetuklikka erishgan shaxs, ma'rifatli, bilimdon kishi hisoblanadi. Shoir Allohning ta'rifini keltirishda, hatto, orifga ham had yo'q, sifoting har xil narsalar ichida ta'riflangandan ham ustun, deb "Har bir sifating ichra sifatlangan (narsa) Zotingni ta'riflashga ojiz, chunki uning zoti Seni sharhlab, tushuntirib berolmaydi" degan mazmundagi misralarda Navoiy baytiga ulaydi. Mazkur bandda ham g'azal baytidagi ayrim so'zlar o'zgartirilgan, ya'ni "zotingda" so'zidagi o'rin-payt kelishigi o'rnida jo'nalish kelishigi "zotingg'a" shakli, "qila olmay" jumlasini o'rnida "**deyolman ham**" birligi qo'llangan. Bu shakldagi tafovutlar bayt mazmuniga ta'sir etmasa-da, o'zgartirishlar aynan shoirga tegishlimi yoki kotibgami, buni aniq aytish mushkul. Ko'p hollarda bu kabi tafovutlar manbalarni ko'chirgan kotiblar faoliyatida kuzatilgan.

Jahong'a rahmating om o'ldi, bas qahring ham ermas zid,

Itobing jomi chekmay kimsa mehning no'sh qilg'oni had.

Hama shoh-u gado sultoni sen shahanshoi tafrid,

Ne qahring zahrinni emin bo'lub bir sokin masjid,

Na lutfung bodasidin noumid ahl xaroboti.

Ma'lumki, islom dinining muqaddas kitobi bo'lmish Qur'oni karimning ilk oyatida Alloh taoloning Rahmon — Mehribonligi uqtirilib, U zotning O'z bandalariga ko'rsatgan eng katta marhamati – ularga butun hayotlari uchun dasturilamal bo'lgan Qur'oni karim tushirilgan ekanligi ta'kidlanadi [Qur'oni azim muxtasar tafsiri 2019, 10]. Jahonda Allohning rahmati yog'ilgan, xuddi shu kabi qahri ham ma'lum. Yaratgan Robbim g'azabidan qo'rqqan kimsa mehridan ham bahramand bo'ladi. Ya'ni yer-u osmonda Alloh

taologa muhtoj bo'lmagan va Undan madad – yordam tilamagan biron jonzot yo'qdir. U zot har kuni, har soat, har lahzada O'zi yaratgan koinotdagi barcha maxluqotni boshqarib turadigan Parvardigordir. Shuning uchun shoir hamma shoh-u gadoning sultoni yolg'iz Alloh ekanligini ta'kidlaydi.

Taxmis muxammasning oltinchi bandida shoir tazod san'atidan unumli foydalangan va shu orqali g'azal bayti bilan hamohanglikni yuzaga keltirgan. Allohning rahmati va qahrini, g'azabi va mehrini, shoh va gadoni zidlash orqali masjidda toat uchun o'tirgan har bir inson Xudoning qahridan himoyalanmaganidek, ahli xarobot, ya'ni darveshlar ham lutf-u marhamatidan noumid emas, degan Navoiy fikrini tasdiqlagan.

Fanoyi yo'ldin ozur yo ilohiy, oni boshqorsang,
Sirof al mustaqim ichra hidoyat sori boshqarsang.
Ko'ngulda g'ayr naqshi kim shahodat tig' ila yorsang,
Navoiy zikr otingdur umidi ulki qutqarsang,
Aning ot istamakdin balki andin kam bo'lur oti.

Aslida “fano” – o'lim, yo'q bo'lish degan ma'noni bildiradi. O'zidan va butun borliqdan kechib, ilohiyotga sig'inish ma'nosida ham qo'llanadi. Yana Qur'oni karimning “Fotiha” surasida: “Yer yuzidagi barcha jonzot foniidir. Buyuklik va karam sohibi bo'lgan Parvardigoringizning yuzi – O'zigina boqiy mangu qolur”, degan oyatlar mavjud. Arab tilini mukammal bilgan, diniy bilimga ega mutasavvuf shoir Huvaydo o'z baytlarini oyatlardan oziqlangan holda yozgan. Ya'ni fano yo'lidan ilohiy yo'lga o'tish Allohning qo'lida, u boshqarsa, banda o'sha yo'ldan yurishi aytilmoqda. Keyingi misrada “sirot al mustaqim” – do'zaxning ustidan jannatga o'tiladigan ingichka ko'prik, ya'ni haqiqat yo'lidan hidoyat sari faqat Allohgina boshqarib borishi, ko'ngildagi begona naqshni shahodat tig'i bilan yorishi aytilgan. Mazkur so'nggi bandda Huvaydo Allohga yolvorib, yo'ldan ozdirmasligini, sirot al mustaqim ichra hidoyat sari boshqarishini, ko'ngildagi g'ayrni shahodat tig'i bilan yorishini so'rab turib, Navoiyning zikri kecha-kunduz Sening otingdir, ammo umidim shuki, uni nom (ot) chiqarish, g'ururlanishdan saqlasang, balki nom chiqarishga bois bo'ladiganlardan ham xalos etsang, degan mazmundagi maqta'sini keltiradi.

Yuqorida keltirilgan muxammas matni va tahlilidan shu narsa ma'lumki, Allohni borliqdagi ashyolarda aks etgan sifatleri orqali tanish mumkin. Ammo ana shu sifatleri tanish, bilish va ular orqali Parvardigori olam zotini tanib olish ham oson emas.

Muxammas misralarining asl mohiyati ilohiy ishq va oshiqlik tarannumidir. Hazrat Navoiy ijodini sevib o'qigan va u zotni o'ziga ustoz deb bilgan Huvaydo "Zihi har lahni bulbul savtining zotingg'a isboti" deb boshlanuvchi hamd g'azaliga yozgan taxmis muxammasi orqali ustoziga bo'lgan buyuk ehtiromini namoyon qilgan.

Alisher Navoiy va Huvaydoning mazkur she'rlaridagi tafovutlarni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

Alisher Navoiy g'azali baytlari	G'azal matni	H u v a y d o muxammasi bandlari	M u x a m m a s d a keltirilgan g'azal matni
1-bayt	Zihi har lahni bulbul savtining zotingg'a isboti, Jahon bog'ida har gul yafrog'i husnungg'a mir'oti.	1-band	Zihi har lahn bulbul surati zoting din isboti, Jahon bog'ida har gul yafrog'i husnung ni mir'oti.
2-bayt	Vujudi zarraning mumkin emas to sobit o'lmas mehr, Ne hojat zarra xaylidin quyosh zotig'a isboti?	2-band	Vujud zarraning mumkin emas to sobit ermas mehr, Na hojat zarra xaylidin quyosh zotig'a isboti?
3-bayt	Bo'lub zotingda ojiz har sifat ichida mavsufi, Oningdekkim qila olmay sifoting sharhini zoti.	3-band	Xirad zotingg'a tashbeh aylamakka har na fikr aylar, Takallum anda yo'l tobmas magar hayhot-hayhoti.
4-bayt	Xirad zotingni tashbih etgali har fikrkim aylab, Takallum anda yo'l topmay magar hayhot-hayhoti.	4-band	Erur har zarra maqbulung quyoshdin zarra qilg'ondek, Quyosh ul zarradin aylab sharaf birla mubohoti.
5-bayt	Ne qahring zahridin emin bo'lub har sokini masjid, Ne lutfung bodasidin noumid ahli xaroboti.	5-band	Bo'lub zotingg'a ojiz har sifat ichida mavsufi, A n i n g d e k k i m deyolman ham sifating sharhini zoti.
6-bayt	Ne zarra bo'lsa maqbulung quyoshdin zarra qilg'ondek, Quyosh ul zarradin aylab sharaf birla mubohoti.	6-band	Ne qahring zahri nni emin bo'lub bir sokin masjid, Na lutfung bodasidin noumid ahli xaroboti.

7-bayt	Navoiy zikri otingdur, umidi ulki, qutqorsang, Ani ot istamakdin, balki andinkim bo'lur oti.	7-band	Navoyi zikr otingdur umidi ulki qutqarsang, Aning ot istamakdin, balki andinkim bo'lur oti.
--------	--	--------	---

Xulosa

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash o'rinliki, mumtoz adabiyotimizda taxmis-muxammaslar biror shoirga izdoshlik, maslakdoshlik, uning g'azalidan ta'sirlanish, ilhomlanish, unda o'z fikr-kechinmalariga hamohanglik ko'rish asosida yuzaga kelgan. Huvaydo "Devon"ida ilm ahliga ma'lum bo'lgan 3 muxammasi o'rin olgan. Ulardan biri So'fi Olloyorning "Ezdi bag'rim, teshti ko'ksun dog'i hijronim mening" deb boshlanuvchi munojot g'azaliga taxmis qilib yozilgan. Shoir taxmis yozishda ustoz Alisher Navoiyning aynan hamd g'azalini tanlashi bejiz emas. Chunki shoir ijodi boshdan oxir diniy-tasavvufiy, so'fiyona ruhga yo'g'rilgan. Hayotini halol mehnati bilan, toat-ibodatda o'tkazgan taqvodor inson bo'lgan shoir Huvaydo o'z muxammasida asos qilib olgan Navoiy g'azalidagi fikrlarni rivojlantirgan, kechinmalarni badiiy sharhlab, mavzuni kengaytirgan hamda o'z muxammasida Navoiy kabi ilohiy ishqni tarannum etgan.

Huvaydo turli janrlarda qalam tebratar ekan, har bir janrda o'zining badiiy mahoratini namoyon eta olgan. She'riy shakllarning yangi imkoniyatlarini kashf qilishga intilgan. Uning g'azallari, mustazodlari, musaddas-u muxammaslari o'quvchida zavq-shavq uyg'otadi, oliy insoniy fazilatlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Shu bois olima Suyima G'aniyeva: "Shoir ishq majoziy hayotda ham, ishq haqiqiy hayotda ham ajib ehtiros bilan, najib dardmandlik bilan qalam tebratadi. Shoir she'riyatida didaktik ohanglar ham yetakchi o'rin tutadi. Lekin ular shunchaki quruq pand-u nasihatlar emas, ularning asosida g'amdan, nochorlikdan yaralgan donolikni uqamiz. Shoirning qator g'azallarida isyonkorona ruh shu qadar yolqinliki, beixtiyor otash haroratini his etamiz. Tasavvufiy g'azallarda esa e'tiqodda ustuvorlik, iymonda poklik tarannum qilinadi, ruhiyatni Haq sari izchil yo'naltirishga da'vat etiladi" [Huvaydo 2009, 4] deb yozgan edi.

Salaflari qatori Xojanazar Huvaydo ijodi ham Islom dinining targ'ibotiga o'z hissasini qo'shgan, dinning go'zalligini, uning murakkabligini va keng qamrovliligini isbotlashga bel bog'lagan. Umuman olganda, mumtoz adabiyot Qur'on bulog'idan suv ichgan, Hadis tarovatlaridan ilhomlangan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Darhaqiqat, Huvaydo nazmining asl mohiyatini bugungi foni

dunyo manfaatlariga tikilgan foniyl ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi. Hayot tilsimlarini yechish, dunyoni mukammal ko'rish, haqiqatni teran anglash, insoniy kamolot pillapoyalaridan sobitqadam ko'tarilish uchun Huvaydo ijodini doimiy hamrohimizga aylantirmog'imiz lozim.

Adabiyotlar

“1900 “هویداى جمائى. *Buxoro toshbosmasi*;

Alisher Navoiy. 1987. *Badoyi' ul-bidoya*. Mukammal asarlar to'plami.

Yigirma tomlik. Birinchi tom. Toshkent: Fan. 689 b.

Huvaydo. 2005. *Devon*. Toshkent: Yangi asr avlodi. 303 b.

Huvaydo. 2009. *Ko'ngil dardi*. Toshkent: “MERIYUS”.

Jumaxo'ja N. 1998. Huvaydo tasavvufiy she'rlarida falsafiy-badiiy talqin.

Sharq yulduzi 4: 176-181.

Jumaxo'ja N., Qosimov B. 2001. *O'zbek adabiyoti*. Toshkent.

Жумахўжа Н. 2018. *Навоий ғазалиёти талқинлари*. Тошкент.

Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 1983. 4 jildlik. 1-jild. Toshkent: Fan.

656 b.

Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 1983. 4 jildlik. 2-jild. Toshkent: Fan.

644 b.

Носиров, О. ва б. 1979. *Ўзбек классик шеърляти жанрляри*.

Тошкент.

Ochilov, E. 2023. Huvaydo ijodida Navoiy an'analari. Toshkent: *Xalqaro*

konferensiya materiallari № 68: 46.

Qur'oni azim muxtasar tafsiri. 2019. Toshkent: Movarounnahr.

Ro'zmatzoda, Q. 2020. *Xojamnazar Huvaydo diniy-mistik qarashlarining*

XVII-XVIII asrlar Markaziy Osiyo tasavvufi rivojidadagi o'rni: fil.

fan. dok... avtoref. Toshkent.

Ro'zmatzoda, Q. 2001. *Xojanazar Huvaydo va tasavvuf. Sirli olam* 3:

54-57.

On Huvaydo's Mukhammas Based on a Ghazal by Navo'i

Munavvar Olimova¹

Abstract

Khojanazar Huvaydo is one of the prominent poets of Uzbek literature of the 18th century, famous for his lyrical poems and epics. His lyrical legacy was published as a devan. The article compared the poet's published book with the lithograph «Huvaiddoyi Chimyoni» kept in the Bukhara Museum of Literature and Art. Also, a mukhammas attributed to Navoi's ghazal, unknown to the scientific community, is being published for the first time. The text of mukhammas was converted from the old Uzbek script to the current one and subjected to ideological and artistic analysis.

Key words: *textual studies, manuscripts, lithographs, devan, mukhammas, Qur'an, hadith, mysticism.*

References

- “1900 “هویداى جمائى”. *Buxoro toshbosmasi*;
Alisher Navoiy. 1987. *Badoyi' ul-bidoya*. Mukammal asarlar to'plami.
Yigirma tomlik. Birinchi tom. Toshkent: Fan. 689 b.
Huvaydo. 2005. *Devon*. Toshkent: Yangi asr avlodi. 303 b.
Huvaydo. 2009. *Ko'ngil dardi*. Toshkent: “MERIYUS”.
Jumaxo'ja N. 1998. Huvaydo tasavvufiy she'rlarida falsafiy-badiiy talqin.
Sharq yulduzi 4: 176-181.
Jumaxo'ja N., Qosimov B. 2001. *O'zbek adabiyoti*. Toshkent.
Jumaxo'ja N. 2018. *Navoiy g'azaliyoti talqinlari*. Toshkent.
Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 1983. 4 jildlik. 1-jild. Toshkent: Fan.
656 b.
Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 1983. 4 jildlik. 2-jild. Toshkent: Fan.
644 b.
Nosirov O. va b. 1979. *O'zbek klassik she'riyati janrlari*.
Toshkent.
Ochilov E. 2023. Huvaydo ijodida Navoiy an'analari. Toshkent: *Xalqaro konferensiya materiallari № 68*: 46.
Qur'oni azim muxtasar tafsiri. 2019. Toshkent: Movarounnahr.

¹ Munavvar S. Olimova – independent researcher, Bukhara State University.

E-mail: olimovamunavvar1981@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-0344-9139

For citation: Olimova, M. S. 2024. “On Huvaydo's Mukhammas Based on a Ghazal by Navo'i”. *Golden scripts* 4: 46 – 59.

- Roʻzmatzoda Q. 2020. *Xojamnazar Huvaydo diniy-mistik qarashlarining XVII-XVIII asrlar Markaziy Osiyo tasavvufi rivojida oʻrni*: fil. fan. dok... avtoref. Toshkent.
- Roʻzmatzoda Q. 2001. Xojanazar Huvaydo va tasavvuf. *Sirli olam* 3: 54 – 57.